

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TO‘QIMACHILIK VA TIKUV-
TRIKOTAJ SANOATI KORXONALARI SIFAT MENEJMENTI TIZIMI
XALQARO STANDARTLARGA MOSLIGI VA RIVOJLANISHINING XOZIRGI
HOLATI

Safina Nafisa Talgatovna

Andijon Mashinasozlik Instituti. Katta o‘qituvchi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoat korxonalarini sifat menejmenti tizimi xalqaro standartlarga mosligi va rivojlanishining hozirgi holati tahlil qilingan va xulosalar chiqarilgan.*

Kalit so‘zlar: *sifat, sifat menejmenti tizimini, xalqaro standartlar, mahsulot sifatini oshirish, raqobat, ISO xalqaro standartlari.*

Bugungi kunda tadbirkorlikni rivojlantirish, mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirish, mahalliy to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati mahsulotlarini jahon bozoriga chiqarishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Mamlakatdagi iqtisodiy vaziyatga, mahsulotlarning raqobatbardoshligi va iste‘molchilarning mahsulotlarga ishonchiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadigan mahsulotlarning muvofiqligini tasdiqlash bilan bog‘liq masalalar tobora keskinlashmoqda. To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati sanoat mahsulotlarining xavfsizligi, ularning qo‘llanilish sohasi va funktsional maqsadiga qarab, mexanik, kimyoviy va biologik ko‘rsatkichlar bilan baholanadi. Shu munosabat bilan ishlab chiqaruvchilar mamlakat aholisi xavfsizligini ta‘minlash, sog‘lig‘i va atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan mahsulotlarga qo‘yiladigan belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlashlari shart. Bunday talablarga muvofiqligini ko‘rsatishning haqiqiy usuli bu mahsulotning muvofiqligini tasdiqlovchi hujjat shaklida ifodalangan muvofiqlikni baholashdir.

Yuqoridagi chora-tadbirlarning ishlab chiqarishga samarali tatbiq etilishini oshirish maqsadida mamlakatimiz korxonalarida xalqaro standartlarga asoslangan sifat menejmenti tizimlarini joriy etish dolzarb masala hisoblanadi.


ISO xalqaro standartlari mahsulotlar va xizmatlar xavfsiz, ishonchli va sifatli bo‘lishini ta‘minlaydi. ISO standartlari korxonalar uchun chiqindilarni va xatolarni minimallashtirish va samaradorlikni oshirish orqali xarajatlarni kamaytiradigan strategik vositalardir. ISO standartlari kompaniyalarga yangi bozorlarga chiqishga, erkin va adolatli global savdo yuritishga yordam beradi.



Rivojlangan mamlakatlarda ISO 9000 seriyali xalqaro standartlarga asoslangan boshqaruv tizimini joriy qilgan tashkilotlar soni taxminan 40-70% ni tashkil qiladi.

Xozirda O‘zbekiston respublikasining yetakchi yengil sanoat korxonalarini va tashkilotlari xalqaro standartlar talablariga muvofiq sifat menejmenti tizimlarini (SMT) joriy qilmoqdalar. SMT muvaffaqiyatli ishlashi uchun u korxonalar faoliyat ko‘rsatayotgan soha bilan uyg‘unlashtirilgan bo‘lishi kerak.

Dunyo bo‘yicha ISO 9001:2015 sertifikatiga ega tekstil va tekstil mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar soni dinamikasi (2018-2022 yillar davomida) 1-rasmda tasvirlangan. Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, oxirgi besh yilda ISO 9001:2015 olgan tekstil va tekstil mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar soni deyarli ikki barobar ortgan. Yengil sanoat korxonalarini mahsulotni raqobatbardoshligini oshirish, eksport hajmini ko‘paytirish uchun sifat menejmenti tizimini xalqaro talablarga javob berishi uchun uni doimo takomillashtirish zarurdir.



Rasm-2.3. Dunyo bo‘yicha ISO 9001:2015 sertifikatiga ega tekstil va tekstil mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar soni dinamikasi (2018-2022 yillar davomida)³²

³² ISO Survey of certifications to management system standards - Full results
[ISO/CASCO - Committee on conformity assessment](#)

O'zbekiston respublikasida mahsulot sifatini oshirish va raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida huquqiy baza yaratildi:

- O'zbekiston Respublikasining “Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida”gi Qonuni (1993-12-28 № 1006-XII)

- O'zbekiston Respublikasining "Muvofiqlikni baholash to'g'risida" Qonuni (2013-10-04 № O'RQ-354)

- "Texnik jihatdan tartibga solish sohasida davlat boshqaruvini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2 iyundagi PF-6240-sonli qarori

- "O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2 iyundagi PQ-5133-sonli qarori

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 22 iyuldagi 349-sonli “Korxonalarda xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan sifatni boshqarish tizimlarini joriyetish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 5 avgustdagi 373-sonli “O'zbekiston davlat standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi tuzilmasini takomillashtirish va uning faoliyatini tashkil etish to'g'risida” qarori.

“O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi to'g'risidagi Nizom”ga muvofiq, O'zbekiston Texnik jihatdan tartibga solish agentligiga, eksport qiluvchi korxonalarda va sanoat mahsulotlarini xalqaro standartlarga muvofiq sertifikatlashda mahsulot sifatini boshqarishning zamonaviy tizimlarini keng joriy etish vazifasi yuklangan bo'lib, uning doirasida Agentlik:

- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan birgalikda korxonalarda zamonaviy sifat menejmenti tizimlarini joriy etish jadvallarini tasdiqlaydi va ularning amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha nazoratni amalga oshiradi;

- eksportga yo'naltirilgan mahsulotlarni xalqaro standartlarga muvofiq, shu jumladan, xalqaro darajada e'tirof etilgan muvofiqlikni baholash organlarini jalb etgan holda sertifikatlashtirish ishlarini tashkil etadi;

- xalqaro standartlarga muvofiq sifat menejmenti tizimlarini joriy etishning afzalliklarini ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borishni amalga oshiradi;

- sifat menejmenti tizimini joriy qilgan korxonalar ro'yxatini yuritadi.

Menejment tizimlarini ishlab chiqish va joriy etish korxonalar tomonidan mustaqil ravishda yoki tegishli malakaga ega bo'lgan maslahatchini jalb etish



orqali amalga oshiriladi. Bunda maslahatchini jalb etish ochiq tanlov asosida amalga oshiriladi.

Sifat menejmenti tizimlarini sertifikatlashtirish [“O‘zbekiston akkreditatsiya markazi” davlat unitar korxonasi](#) tomonidan belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan boshqaruv tizimlarini sertifikatlashtirish organlari tomonidan amalga oshiriladi³³.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarida sifatni boshqarish tizimlarini joriy etgan va sertifikatlashtirilgan korxonalar uchun bir qator imtiyozlar belgilangan. Ushbu korxonalarga soliq imtiyozlari qo‘llanilib, tender savdolarida ustunlik berilmoqda.

Sifat menejmenti tizimlarini sertifikatlashtirish bo‘yicha akkreditatsiya qilingan organlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2016-yil 16-yanvardagi 2754-son bilan ro‘yxatga olingan «Menejment tizimlarini sertifikatlashtirish tartibi to‘g‘risida»gi nizomga muvofiq xizmatlar ko‘rsatadi³⁴.

O‘zbekiston Respublikasida standartlashtirishga doir quyidagi toifadagi normativ hujjatlar qo‘llaniladi:

- xalqaro (davlatlararo, mintaqaviy) standartlar;
- O‘zbekiston Respublikasining davlat standartlari;
- tashkilotning standartlari;
- xorijiy mamlakatlarning milliy standartlari.

Standartlashtirishga doir normativ hujjatlar jumlasiga, shuningdek standartlashtirish qoidalari, normalari, texnik-iqtisodiy axborot klassifikatorlari ham kiradi.

Tahlillar natijalariga ko‘ra 2022 yilda O‘zbekiston respublikasida Standartlashtirish sohasida xalqaro talablar bilan uyg‘unlashgan 7 763 ta standart qabul qilinib, 7 968 tasi qayta ko‘rib chiqildi. Natijada standartlar soni 19 543 taga yetkazildi (80,4 %);

Misol uchun: qurilish sohasida (2264 ta), metallurgiya (833 ta), to‘qimachilik va charm (638 ta), axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya (1124 ta), neft va gaz (1354 ta), elektrotexnika (1467 ta), kimyo texnologiyalari (1374 ta), oziq-ovqat sanoati (2154 ta) va boshqa sohalarda (5224 ta) standart xalqaro talablar bilan uyg‘unlashtirilgan.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasida texnik reglamentlar soni 57 tani tashkil etadi (41 ta umumiy, 16 ta maxsus). Joriy yil yakuniga qadar YEOIIda qabul qilingan hamda O‘zbekiston Respublikasida amalda bo‘lmagan 23 ta

³³ O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi rasmiy sayti ma’lumotlari.

<https://www.standart.uz/page/view?id=41> [elektron resurs]

³⁴ [«Menejment tizimlarini sertifikatlashtirish tartibi to‘g‘risida»gi nizom.](#)



texnik reglamentni qabul qilishni nazarda tutuvchi tegishli normativ-huquqiy hujjat loyihalarini hamda O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan 11 ta texnik reglamentni YEOIIda o‘xshash texnik reglamentlar bilan uyg‘unlashtirish bo‘yicha tarmoq jadvali ishlab chiqildi.

YEOIIda qabul qilingan hamda O‘zbekiston Respublikasida amalda bo‘lmagan 22 ta texnik reglamentlaridan 4 tasi Vazirlar Mahkamasiga qarori bilan tasdiqlandi, 9 ta loyiha Vazirlar Mahkamasiga kiritildi shundan (6 ta loyiha Vazirlar Mahkamasida, 3 tasi e‘tirozlar bilan qaytarildi). 12 ta loyiha Adliya vazirligiga Huquqiy ekspertizadan o‘tkazish uchun kiritildi, qolgan 1 tasi vazirlik vaidoralar bilan kelishish jarayonida.

O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan 11 ta texnik reglament loyihalari Adliya vazirligiga kiritilib, shundan 9 tasi Vazirlar Mahkamasiga kiritildi (3 ta loyiha Vazirlar Mahkamasida, 6 tasi e‘tirozlar bilan qaytarildi). Qolgan 2 ta loyiha Adliya vazirligi tomonidan Huquqiy ekspertiza natijalari bo‘yicha ijobiy xulosasi olingandan so‘ng Vazirlar Mahkamasiga kiritiladi.

«Yengil sanoat mahsulotlari xavfsizligi» to‘g‘risidagi umumiy texnik reglament (UzTR.148-008:2016) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 11 maydagi 148-sonli qarori bilan tasdiqlangan³⁵.

«Yengil sanoat mahsulotlari xavfsizligi to‘g‘risida»gi Umumiy texnik reglamentda mahsulotlar va xizmatlarning belgilangan talablarga muvofiqligini baholash uchun zarur bo‘lgan, mahsulotning namunalari olish, sinovlari va o‘lchovlari usullarini belgilovchi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar asosida amalga oshiriladi³⁶.

Standartlar va o‘lchovlar yagona birlikda bo‘lishini ta‘minlash bo‘yicha davlat nazorati sohasida 14932 ta korxonada profilaktika tadbirlari o‘tkazildi.

3385 ta korxonada 5075 ta me‘yoriy hujjat bilan ta‘minlandi. 2741 ta korxonaning 21054 ta o‘lchash vositalari davlat qiyoslash ko‘rigidan o‘tkazilishida hamda 1412 ta korxonaga sertifikatlashtirish yuzasidan amaliy yordam ko‘rsatildi.

2022 yilda respublikamizda muvofiqlikni baholash sohasida milliy sertifikatlash tizimida 133180 ta muvofiqlik sertifikati rasmiylashtirildi, shundan, 922 ta muvofiqlik sertifikati bir kalendar yiliga shartnoma asosida, 6796 ta muvofiqlik sertifikati seriyali ishlab chiqarishga rasmiylashtirildi.

³⁵ [148-сон 11.05.2016. Об утверждении Общего технического регламента о безопасности продукции легкой промышленности \(lex.uz\)](#)

³⁶ [«Енгил саноат маҳсулотлари хавфсизлиги тўғрисида»ги Умумий техник регламентда маҳсулотлар ва хизматларнинг белгиланган талабларга мувофиқлигини баҳолаш учун зарур бўлган, маҳсулотнинг намуналарини олиш, синовлари ва ўлчовлари усуллари белгиловчи техник жиҳатдан тартибга солиш соҳасидаги норматив ҳужжатлар рўйхати.](#)



Menejment tizimlarini joriy etish sohasida 645 ta korxonada 1065 ta sifat menejment tizimlari bo‘yicha sertifikatlar rasmiylashtirilgan, shundan:

Sifat menejment tizimlari bo‘yicha sertifikatlashtirish 16 ta akkreditlangan organlari tomonidan amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi 72 ta korxonaga Oeko Tex, 6 ta korxonaga Sedex, 2 ta korxonaga BCSI xalqaro standart talablari asosida mahsulot ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Respublika hududlarida eksportni rivojlantirish va qo‘llab- quvvatlash bo‘yicha quyidagi ishlar amalga oshirildi.

Eksportyor korxonalarga 1710 ta, shundan standartlashtirish 669 ta, metrologiya 92 ta, sertifikatlashtirish 311 ta, qadoqlash va yorliqlash 110 ta, sifat menejment tizimlari masalalari 383 ta va boshqa masalalarda 145 ta konsultativ xizmatlar ko‘rsatildi. 134 marotaba seminar-trening, 42 ta televideniya chiqish, gazeta va jurnallarda 48 ta maqolalar chopetildi. Hududlarda joylashgan 177 ta tumandagi 1193 ta korxonalarining 85 turdagi mahsulotlarini dunyoning 43 ta mamlakatlariga eksport qilinishida amaliy yordamlar ko‘rsatildi. Misol uchun: MDH, Xitoy, Hindiston, BAA, AQSH, Turkiya, Iroq, Kanada, Afg‘oniston, Pokiston, Koreya, Germaniya, Polsha, Latviya, Italiya, Portugaliya, Tayvan va boshqa.

O‘zbekiston akkreditatsiya markazi Xalqaro akkreditatsiya forumi – IAF, Xalqaro laboratoriyalar akkreditatsiyasi hamkorligi – ILACteng huquqli a‘zosi sifatida tan olindi. IAF-MLA va ILAC-MRA muvofiqlikni baholash natijalarini o‘zaro tan olish bitimlariga qo‘shildi.

Yevropa Komissiyasining Texnik yordam va axborot almashuvi vositasi (TAIEX), Turkiya hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligi (TIKA), Xalqaro elektrotexnika komissiyasi (IEC). Xalqaro Standartlashtirish Tashkiloti (ISO), Hilfswerk International (Avstriya), GIZ (Germaniya), Germaniya Federal fizika-texnik instituti (PTB), SASO (SaudiyaArabistoni), HDC (Malayziya), Islom mamlakatlarining standartlar instituti (SMIIC), CATARC (Xitoy), Rosstandart (Rossiya), Gosstandart (Belarus), URS BANGLADESH (Bangladesh), The Technical and Test Institute for Construction Prague SOE (Chexiya), Latviya standartlar instituti (Latviya), Latviya Metrologiya instituti (LNMI) grant va texnik ko‘maklarini faol jalb etish orqali davlat va xususiy sektorda faoliyat ko‘rsatayotgan 700 ta mutaxassis bilim va malakasi oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasida 2022 yil 31 dekabr holatiga hududlarida faoliyat yuritayotgan xalqaro standartlarga muvofiq sifat menejmenti tizimlari joriy etilgan korxonalar (tarmoqlar kesimida) soni 12369 tani va jami



korxonalariga nisbatan 27,4 foizni tashkil etgan. Ushbu ma’lumotlarga ko’ra sertifikatlangan korxonalarining asosiy qismi iqtisodiyotimiz tarmoqlari bo’yicha oziq ovqat sanoati (3780 ta), qurilish (2526 ta), yengil sanoat (1758 ta) sohalariga to’g’ri kelgan.

Andijon viloyatida xalqaro standartlarga muvofiq sifat menejmenti tizimlari joriy etilgan korxonalar (tarmoqlar kesimida) soni 1012 tani va jami korxonalariga nisbatan 21,5 foizni tashkil etgan. Shuningdek, sertifikatlangan korxonalarining asosiy qismi iqtisodiyotimiz tarmoqlari bo’yicha oziq ovqat sanoati (404 ta), yengil sanoat (159 ta), metallurgiya va mashinasozlik (141 ta), qurilish (119 ta) sohalariga to’g’ri kelgan (2.10-jadval).

O’zbekiston Respublikasi hududlarida faoliyat yuritayotgan xalqaro standartlarga muvofiq sifat menejmenti tizimlari joriy etilgan korxonalarining eng katta qismini (11014 ta) ISO 9001 xalqaro standarti tashkil etgan.

Andijon viloyatida ham ushbu standartni joriy etgan korxonalar eng katta qismni tashkil etgan (880 ta).

Hozirgi kunda korxonalar tomonidan ishlab chiqilgan davlat standartlari loyihalarini ekspertizadan o’tkazish va ishlab chiqish jarayonida ularni xalqaro standart talablari bilan uyg’unlashgan xolda qabul qilinishi tizimi yo’lga qo’yildi. Natijada, barcha ishlab chiqarilayotgan davlat standartlari endilikda xalqaro standartlar bilan uyg’unlashgan xolda qabul qilinmoqda, bu esa o’z navbatida mahsulotni ichki va tashqi bozor uchun raqobatbardoshligini oshishiga olib keladi.



**“FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS
INTERDISCIPLINARY SCIENCES”**



Jadval-1

O‘zbekiston Respublikasi hududlarida faoliyat yuritayotgan xalqaro standartlarga muvofiq sifat menejmenti tizimlari joriy etilgan korxonalar to‘g‘risida ma‘lumot (tarmoqlar kesimida, 2022 yil 31 dekabr holatiga)

№	Hudud nomi	Ishlab chiqarish korxonalar soni	Sertifikatlashirilgan korxonalar soni	%	Sanoat kesimida							
					Kimyo va neft-kimyo	Metallurgiya va mashinasozlik	Elektro-texnika	Yengil sanoat	Oziq-ovqat sanoati	Qurilish	Farmasevtika va tibbiyot uskunalari	boshqa
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1272	332	26,1	31	6	3	38	103	103	0	48
2	Andijon viloyati	4708	1012	21,5	45	141	15	159	404	119	3	126
3	Buxoro viloyati	2166	763	35,2	44	22	13	107	212	209	10	146
4	Jizzax viloyati	1629	406	24,9	28	7	9	34	120	120	2	86
5	Qashqadaryo viloyati	1998	672	33,6	34	13	3	30	313	157	1	121
6	Navoi viloyati	1413	634	44,9	29	31	7	51	232	162	8	114
7	Namangan viloyati	3383	841	24,9	37	35	24	228	226	155	15	121
8	Samarqand viloyati	3083	1717	55,7	65	40	24	399	470	377	17	325
9	Surxondaryo viloyati	1548	571	36,9	23	5	3	103	174	180	2	81
10	Sirdaryo viloyati	1035	379	36,6	23	12	2	54	134	58	14	82
11	Toshkent viloyati	5258	1206	22,9	104	59	29	74	463	223	26	228
12	Farg‘ona viloyati	4562	1172	25,7	64	36	17	168	524	193	6	164
13	Xorazm viloyati	2054	614	29,9	25	31	12	85	161	207	3	90
14	Toshkent shahri	10969	2050	18,7	254	129	117	228	244	263	82	733
Jami:		45 078	12 369	27,4	806	567	278	1 758	3 780	2 526	189	2 465

(Manba: O‘zbekiston Respublikasi texnik jihatdan tartibga solish agentligining rasmiy ma‘lumotlari)

Jadval-2

O‘zbekiston Respublikasi hududlarida faoliyat yuritayotgan xalqaro standartlarga muvofiq sifat menejmenti tizimlari joriy etilgan korxonalar to‘g‘risida ma‘lumot (standartlar turlari kesimida, 2022 yil 31 dekabr holatiga)

№	Hudud nomi	Ishlab chiqarish korxonalar soni	Rasmiylashtirilgan sertifikatlar soni	%	shu jumladan									
					ISO 9001	ISO 14001	OHSAS 18001	ISO 45001	ISO 22000	ISO 50001	ISO 37001	ISO/TS 16949	GMP	IMT
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1272	367	28,9	288	19	2	11	9	3	0	0	0	35
2	Andijon viloyati	4708	1174	24,9	880	84	48	59	37	23	0	24	0	19
3	Buxoro viloyati	2166	816	37,7	654	33	26	15	14	9	0	0	0	65
4	Jizzax viloyati	1629	432	26,5	359	14	4	12	11	4	0	2	0	26
5	Qashqadaryo viloyati	1998	710	35,5	543	18	11	16	14	9	0	0	0	99
6	Navoi viloyati	1413	685	48,5	584	20	14	5	11	13	0	5	0	33
7	Namangan viloyati	3383	901	26,6	749	54	6	41	24	5	0	1	2	19
8	Samarqand viloyati	3083	1797	58,3	1580	57	4	49	49	13	0	0	2	43
9	Surxondaryo viloyati	1548	620	40,1	511	32	3	24	17	3	0	0	0	30
10	Sirdaryo viloyati	1035	398	38,5	359	12	0	2	13	3	0	0	1	8
11	Toshkent viloyati	5258	1305	24,8	1064	54	7	34	83	17	2	0	4	40
12	Farg‘ona viloyati	4562	1249	27,4	1103	41	4	28	16	11	0	5	0	41
13	Xorazm viloyati	2054	649	31,6	502	34	1	28	20	11	0	1	0	52
14	Toshkent shahri	10969	2214	20,2	1838	70	42	33	92	10	6	6	14	103
Jami		45 078	13 317	30	11 014	542	172	357	410	134	8	44	23	613

Izoh: ISO 9001 - Sifat menejment tizimi; ISO 14001 - Ekologik menejment tizimi; ISO 22000 - Oziq-ovqat havfsizligi menejment tizimi; ISO 50001 - Energo menejment tizimi; OHSAS 18001- Sanoat xavfsizligini boshqarish tizimi; ISO/TS 16949 - Avtomobil sanoatida sifat menejment tizimi; GMP - Tegishli ishlab chiqarish amaliyoti; IMT- Integreallashgan menejment tizimi

(Manba: O‘zbekiston Respublikasi texnik jihatdan tartibga solish agentligining rasmiy ma‘lumotlari)

Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida paxtadan yigirilgan ip (44,4 %), tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (29,2 %) asosiy ulushni egallagan.

To‘qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Rossiya Federatsiyasi (1 264,9 mln. AQSH dollari – 39,8 %) va Turkiya (519,1 mln. AQSH dollari – 16,3 %) davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Jadval-2.12



**O‘zbekiston respublikasida 2018-2022 yillarda to‘qimachilik mahsulotlari
eksporti dinamikasi**

Ko‘rsatkichlar nomi	O‘lchov birligi	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2022 yilda 2018 yilga nisbatan o‘sishi
Paxtada yigirilgan ip	mln dollar	726,6	926,1	940,7	1613,4	1410,8	194,2 %
Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari	mln dollar	289,6	354,8	506,5	645,2	928,2	3,2 baravar
Gilamlar	mln dollar	31	32	29,2	42,1	43,9	141,6 %
Naqshli mato	mln dollar	65,5	84,8	144,5	242,8	307,7	4,7 baravar
Boshqa to‘qimachilik mahsulotlari	mln dollar	36,1	51,9	88,8	118,1	161,7	4,48 baravar
Paxtada gazlamalar	mln dollar	65,7	69,2	96,8	131,6	151,4	2,3 baravar
Ipak va ipak mahsulotlari	mln dollar	49,9	71,8	74,9	78,1	92,5	185,4 %
Paxta mahsulotlari	mln dollar	26,8	27,4	30,9	39,7	54,4	2,03 baravar
Boshqalar	mln dollar	91	89	99	16,4	27,4	3,01 baravar
JAMI:		11	11	11	22	33	2,4



			300,3	626,9	922,2	927,4	178	4 baravar
--	--	--	-------	-------	-------	-------	-----	--------------

Manba: Statistika agentligi ma’lumotlari asosida tuzilgan muallif ishlanmasi³⁷

Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 28 apreldagi "Sertifikatlashtirish tartibotlarini va sifat menejmenti tizimlarini joriy etishni takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi 122-sonli qaroriga asosan ishlab chiqaruvchi korxonalarga qulay shart-sharoitlar yaratish, tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirishga yordam berish maqsadida "O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish" agentligida Mahsulotlarni eksport qilishga ko‘maklashish Byurosi tashkil etilgan. Mahsulotni eksport qilishga ko‘maklashish byurosi «O‘zbekiston ilmiy sinov va sifat nazorati markazi» DM tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar ilmiy sinov va sertifikatlashtirish markazlarida bittadan vakilga ega (Toshkent viloyatidan tashqari)³⁸.

Xozirda xomashyoni yanada chuqur qayta ishlashga, undan yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga, xalqaro bozorda xaridorgir bo‘lgan yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarishga, tarmoqda mahsulot sifatini xalqaro standartlar talablari asosida ta‘minlashga, zamonaviy sifatni boshqaruv tizimlarini joriy etishga yanada ko‘proq e‘tibor berilishi lozim. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar asosida biz yurtimizning asosiy iqtisodiy rivojlantirish yo‘nalishlaridan biri hisoblangan yengil sanoatni yanada rivojlantirish uchun zamonaviy xalqaro talablarga javob beruvchi sifat menejmenti tizimlarini amaliyotga joriy qilish va uni doimiy takomillashtirish zarur deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADAVIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Мишин В.М. Управление качеством: Учебник для студентов вузов, обучающихся по специальности «Менеджмент организации»/ В.М. Мишин — 2-е изд. перераб. и доп. -М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2005. – 7-9 с.

2. Управление качеством: учебник/ коллектив авторов; под общей редакцией С.А.Зайцева. – Москва : КНОРУС, 2018. - . - (Бакалавриат и магистратура). 9-10 стр.

³⁷ <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/go-mita-yangiliklar/7405-o-zbekiston-respublikasining-tashqi-savdo-aylanmasi-2020-yil-yanvar-dekabr> va <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/go-mita-yangiliklar/33839-o-zbekiston-respublikasi-tashqi-savdo-aylanmasi-2022-yil-yanvar-dekabr-2>

³⁸ <https://www.standart.uz/page/view?id=52>



3. Ребрин Ю.И. Управление качеством: Учебное пособие. Таганрог: Изд-во ТРТУ, 2004.

4. Ковригин Е.А., Васильев В.А. Пути развития СМК в условиях цифровизации // Компетентность / Competency (Russia). — 2020. — № 6. (стр. 12-17)

5. Metrology for the economy and society digitalization; https://www.ptb.de/cms/fileadmin/internet/forschung_entwicklung/digitalisierung/.

6. N.X.Xalilov. “Methodological aspects of development of quality management system in an industrial plant as a basis for increasing its competitiveness”. Journal of Management Value & Ethics. 2017 March. Vol. 7 № 1.

7. Халилов Н.Х., Сафина Н.Т. «Современные проблемы управления качеством на предприятиях лёгкой промышленности в Республике Узбекистан». Colloquium-journal №15 (138), 2022 Część 1 (Warszawa, Polska). (ISSN 2520-6990 ISSN 2520-2480) 81-83p. <https://colloquium-journal.org/wpcontent/uploads/2022/06/Colloquium-journal-2022-138-1>.

8. Халилов Н.Х., Сафина Н.Т. «Роль цифровизации в развитии социально-экономических систем в Республике Узбекистан». Colloquium-journal №15 (138), 2022 Część 1 (Warszawa, Polska). (ISSN 2520-6990 ISSN 2520-2480) 83-86p. <https://colloquium-journal.org/wpcontent/uploads/2022/06/Colloquium-journal-2022-138-1>

9. Khalilov N.Kh., Safina N.T. “Digitalization - as the main factor in the development of the quality management system of the textiles industry of the Republic of Uzbekistan”. World Bulletin of Management and Law (WBML) Available Online at: <https://www.scholarexpress.net> Volume-19, February-2023 ISSN: 2749-3601.

10. Khalilov Nurullo Khamidillayevich, Safina Nafisa Talgatovna, “Development of the quality management system of industrial enterprises the main factor of increasing the competitiveness of products”. “World Economics and Finance Bulletin”, 2022. <https://www.scholarexpress.net/>

